

LUI BRAYL – KO‘ZI OJIZLAR UCHUN YORUG‘LIK YARATGAN IXTIROCHI SHAKLLANTIRISH

*Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi
tarix fani o‘qituvchisi*

Madraximova Ra‘noxon Erkindjanovna

Insoniyat tarixida ayrim shaxslar bor – ular jismoniy imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, butun insoniyat taqdiriga ta‘sir ko‘rsatgan ixtirolarni yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Shunday buyuk zotlardan biri — Lui Brayl. U dunyodagi millionlab ko‘zi ojiz insonlarning hayotini o‘zgartirib yuborgan nuqtali yozuv tizimi – Brayl alifbosining muallifidir. Bu tizim insoniyatning eng demokratik, eng insonparvar ixtirolaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada Lui Braylning bolalik yillari, ta‘lim jarayoni, ixtirosining shakllanishi, dunyoga tarqalishi va bugungi kundagi ahamiyati keng yoritiladi.

Lui Brayl 1809-yil 4-yanvarda Frantsiyaning Kouvera qishlog‘ida oddiy hunarmand oilasida tug‘ildi. Otasi teridan mahsulotlar tayyorlovchi ustaxona egasi bo‘lgan. Kichik Lui 3 yoshida otasining ustaxonasida o‘ynab yurganida terini kesadigan asbob bilan ko‘zini yaralab oladi. Yaralanish infeksiya qo‘shilishi natijasida avval bir ko‘zi, keyin esa ikkinchi ko‘zi butunlay ko‘r bo‘lib qoladi.

O‘sha davrda tibbiyot rivojlanmaganligi sababli bolani davolab bo‘lmasdi. Shu tariqa Lui butun umrga ko‘rlikka mahkum bo‘ladi. Ammo bu holat uning intellektual rivojiga to‘sqinlik qilmadi — aksincha, o‘ta nozik eshitish, tasavvur va xotira qobiliyatlari rivojlandi.

Lui 10 yoshida Parijdagi Ko‘zi ojiz bolalar internatiga o‘qishga yuboriladi. Bu maktab sharoiti juda og‘ir edi, kitoblar hajmi juda katta, bo‘rtma harflar qo‘lda bosilardi, bir kitobni o‘qish uchun ikki kishi kerak bo‘lardi, o‘quvchilar juda kam adabiyotga ega bo‘lgan. Brayl aynan shu davrda ko‘zi ojizlar uchun mustaqil o‘qish va yozish tizimi yo‘qligining naqadar muhim muammo ekanini his etdi.

1821-yilda harbiy kapitan Charl Barbier maktabga kelib, o‘zining “tungi yozuv” deb nomlangan tizimini taqdim etadi. Tizim soldatlar uchun o‘ylangan bo‘lib, zulmatda buyruqlarni o‘qish imkonini berardi. Unda 12 ta nuqta ishlatilgan. Ammo bu tizim juda murakkab, tez o‘qilmaydigan, grammatikaga moslashmagan edi. Shu bois Lui Brayl o‘zining yangi, mukammal, oson o‘qiladigan va yoziladigan tizimini yaratishga qaror qildi.

1824-yil — Lui atigi 15 yosh bo‘lganida 6 ta nuqtadan iborat 63 ta kombinatsiya hosil qiluvchi harf, raqam, tinish belgilari, musiqiy notalar, hatto matematik ifodalarni yozishga mos innovatsion tizimni yaratdi. Bu inson tarixidagi eng yosh ixtirochilardan biri bo‘lib, uning ixtirosi ilm-fan olamida haligacha tengsiz hisoblanadi. Bu ixtiro ko‘zi ojiz insonlar hayotini keskin o‘zgartirib yubordi.

Lui 19 yoshida o‘sha internatda o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshlaydi. Uning dars berish uslubi pedagoglar orasida katta e‘tirof qozonadi. U ayniqsa musiqa sohasida Brayl tizimini

moslashtirib, musiqiy notalar uchun alohida Brayl yozuvini yaratadi. Bu esa ko'zi ojiz musiqachilar uchun ulkan imkoniyat ochib berdi.

Dastlab Braylning ixtirosi bir necha sababga ko'ra tan olinmadi maktab rahbariyati yangilikni qabul qilmasdi ko'r bola ixtiro qila olmaydi degan noto'g'ri qarashlar mavjud edi. Eski o'qituvchilar o'z uslubidan voz kechishni istamasdi.

Ta'limdagi qarshiliklar sabab Brayl alifbosi o'n yillar davomida rasmiylashtirilmadi. Lui bu nohaqlikdan og'ir ranjigan bo'lsa-da, kurashni davom ettirdi.

1840-yillarda Lui Brayl sil kasalligiga chalinadi. Qattiq yo'tal, kuchsizlanish va yetishmovchiliklari ortida ham u dars berishni, o'quvchilar bilan ishlashni davom ettirdi. Nihoyat 1852-yil 6-yanvarda, 43 yoshida vafot etdi.

Afsuski, u tirikligida o'z ixtirosining dunyoga qanchalik katta ta'sir ko'rsatishini ko'ra olmadi. Lui Brayl vafotidan keyin uning o'quvchilari va tarafdorlari tizimni keng targ'ib qila boshladi. 1854-yilda ya'ni u vafotidan ikki yil o'tib Brayl alifbosi Frantsiyada rasmiy ta'lim tizimiga kiritildi. Keyinchalik 1870-yilda Yevropaga 1880-yillarda Amerikaga, 20-asrda Osiyo va Afrikaga keng yoyildi.

Bugungi kunda Brayl tizimi 150 dan ortiq davlatda 133 tilda maktablar, kutubxonalar, universitetlarda rasmiy yozuv tizimi sifatida qo'llaniladi.

Hozirda Brayl tizimi ko'zi ojizlar uchun maktablar darsliklar, o'quv qo'llanmalar, pul kupyuralari dorilar qadoqlarida, elektron Brayl displeylari, mobil telefonlarda, internetda faol qo'llanadi.

Shuningdek, O'zbekistonda ham ko'zi ojizlar uchun Brayl asosida chop etilgan adabiyotlar, maxsus kompyuter markazlari faoliyat yuritadi. U ko'r bo'lsa-da, butun dunyoni ko'ra oladigan "ko'zlar" yaratdi. Bugun Lui Brayl nafaqat ixtirochi, balki inklyuziv ta'lim asoschilaridan biri, inson huquqlari himoyachisi va jamiyatni tenglikka yetaklagan buyuk shaxs sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, uning tuzgan alifbosi millionlab insonlar uchun nafaqat o'qish vositasi, balki erkinlik, mustaqillik va ma'naviy nur manbaidir. Brayl tizimi bugun ham dunyoni yoritishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Raxmonov, M. Qobilov va boshqalar. Jahon tarixi (XX asr). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. "O'zbekiston" nashriyoti, 2001.
2. Amerika Qo'shma Shtatlari tarixi. M. O. Rasulov. Toshkent. O'qituvchi- 2003.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. A.Aduqodirov, R.Ishmuhammedov. 2008.